

ABULG‘OZI BAHODIRXON TARIXIY ASARLARINING O‘RGANILISHI VA TADQIQ QILINISHI

Erkinboyev Fozilbek Zokirjon o‘g‘li

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

70220301-tarix mutaxassisligining 1-kurs magistranti

Annotatsiya; *Mazkur maqolada Abulg‘ozi Bahodirxonning tarixiy merosi, uning tadqiq qilinishi va ilmiy jamoatchilik tomonidan baholanishi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, uning asarlari qanday manbalarga asoslanganligi, ularning mazmuni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar; *“Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima”, Firdavs-ul-iqbol, Ya.G‘.G‘ulomov, Q.Munirov «Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari», Dr.D.G.Messerschmid, N.P.Rumyansev, Qozon universiteti.*

O‘zbek tarixshunosligi va madaniy merosida Abulg‘ozi Bahodirxonning tutgan o‘rni beqiyosdir. U nafaqat Xiva xoniligi hukmdori sifatida davlat boshqaruvini olib borgan, balki mohir tarixnavis sifatida ham ulkan ilmiy meros qoldirgan. Uning asarlari Markaziy Osiyo xalqlari, ayniqsa turkiy qabilalarning kelib chiqishi, davlat tuzilishi, etnik tarkibi va siyosiy tarixi haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. U tomonidan yozilgan “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlari turkiy xalqlarning etnogenezi, siyosiy tarixi va madaniyatini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Abulg‘ozi Bahodirxon asarlarining ilmiy muomalaga kirib kelishi XVIII asrdan boshlab kuzatiladi. Ayniqsa, Yevropa sharqshunoslari tomonidan ushbu manbalarga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu jarayonda rus sharqshunoslik maktabi muhim rol o‘ynagan. XIX asrga kelib Abulg‘ozi asarlari qo‘lyozmalari ilmiy markazlarga yetib borib, ularni nashr qilish va tarjima qilish ishlari boshlangan. Shu tariqa Abulg‘ozi Bahodirxon merosi xalqaro ilmiy jamoatchilik e‘tiboriga havola etildi. Abulg‘ozi Bahodirxonning tarixiy asarlari o‘z davrida ham, keyinchalik ham Sharq va G‘arb olimlari tomonidan chuqur tadqiq etilgan. XVIII–XIX asrlarda uning asarlari rus, frantsuz, nemis va ingliz, turk tillariga tarjima qilinib, jahon tarixshunosligida katta qiziqish uyg‘otgan. Bugungi kunda ham uning ilmiy merosi O‘zbekiston va boshqa turkiy davlatlarda keng o‘rganilmoqda, turli tadqiqotlar va dissertatsiyalar yozilmoqda.

Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajarayi tarokima» va «Shajarayi turk» asarlariga ular xususida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan Munis va Ogahiyning «Firdavs-ul-iqbol» asarida S.P.Tolstov «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab» nomli kitobida, Ya.G‘.G‘ulomov

«Xorazmning sug'orilish tarixi», Bayoniy esa «Shajarayi Xorazmshohiy» kitobida nihoyatda iliq va ijobiy fikrlar bildirganlar. Shuningdek, P.P.Ivanov va A.K.Borovkovlar «XVI-XIX asrlar turkman tarixining manbalari haqida mulohazalar» nomli asarida, B.V.Lunin «O'rta Osiyo tarixidan ocherklar» risolasida, M.I.Yo'ldoshev «Xiva xonligida yer egaligi va davlat tuzilishi» asarida, B.V.Bartold «Madaniy hayot tarixi», Q.Munirov «Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari», B.A.Ahmedov «Ko'chmanchi o'zbeklar davlati» kabi asarlarida ham Abulg'oz Bahodirxonning ijodiga yuqori baxo berganlar. Shuningdek bu asarlar bo'yicha bir qancha tanqiqotlar olib borilgan shu bilan birgalikda Abulg'oz Bahodirxon asarlari keyingi yaratilajak asarlar ilmiy ishlar uchun dastur-ul amal bo'ldi desak noto'g'ri bo'lmas.

G'arbiy Yevropada esa asar nemis, ingliz, fransuz tillarida, hatto Amerikada ham tarjima qilinib nashr ettirildi. Yevropa dunyosi bu asar bilan o'tgan asrning ikkinchi choragida tanishdi. Poltav yaqinidagi g'alabadan so'ng Sibirga jo'natilgan shved ofiserlari Tobolskda Abulg'ozixonning qo'lyozmasi va uning mundariyasi bilan tanishgach bu asar tarjimasini ishlay boshladilar. Bu ilmiy tadqiqotning asosiy tashabbuskori Filipp Ioann Tabbert Shtralenbergedi. Rus tilini yaxshi bilgan buxorolik oxund Abulg'ozixon asarining tarjimasini rus yozuvchisiga bayon qilgan. O'z navbatida shved Shenstrem rus tilidagi tarjimadan foydalanib asarni nemis tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo'ladi. Bu tarjima 1780-yilda – Abulgasi Bahadur Chan's Geschlecht buchder Mungalishen Chanen, auseiner turkischen Handschrift udersetzt von Dr.D.G.Messerschmidt, 17801 Messerschmidt tahrin ostida chop etilgan. Asar nemis tiliga tarjima qilinishidan oldin fransuz tilida 1726-yil Bryusselda nashr qilingan. Bu nashrga Bendik tomonidan izoh qilingan. Ushbu fransuz tilidagi tarjima o'z navbatida asarning ingliz tilidagi tarjimasini (1780) uchun ham asos bo'lib xizmat qildi. Rus olimi Trediakovskiy asarni fransuz tilidan rus tiliga «Родословная история о татарах, переведенная на французский язык с рукописных татарской книги, сочинения Абулгачи-Баядур-Хана... а с французского на Российской в Академии наук» (1770) nomi bilan ikki tomda nashr qildiriladi.

Rus olimi G.Sablukovning qayd etishicha, asarning barcha tarjimalarini ham aniq va to'la ishonchli deb bo'lmaydi. Chunki ularning hech biri biror bir tarixiy voqealikni yoki muammoni aniq yoritib bera olmaydi. Abulg'ozixon asarining siyosiy tili bilish ham olimlarga biroz qiyinchilik tug'durdi. Shunga qaramasdan asarlar tarjimasida mazmun to'laqonli yortilmasa ham qoniqarli ochilgan va biz ilim dunyosi xulosa olishimiz uchun yetarlidir. Asar matnidagi iboralarning aniqroq tushuntirilishi hamda tarixiy bilimlarning manbalar va faktlar shunidek ilmiy aniqliklar asosida to'ldirish maqsadidan kansler graf N.P.Rumyansev Abulg'ozixon asarining nashri uchun mablag' ajratdi va asar Qozon universiteti tipografiyasida chop etildi.

Vengriya fanlar akademiyasining to‘laqonli a‘zosi, mashhur sharqshunos olim G.Vamberi 1863 yilda Tehrondan chiqib Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘og‘i bo‘ylab sayohat qiladi. Bu sayohat davomida Abulg‘ozining «Shajarayi turk» kitobini qo‘liga tushib qoladi va u bilan mukammal tanishadi. Kitob sharqshunos olimga kuchli ta’sir qilib uning turk dunyosi haqidagi fikrini o‘zgartirib yuboradi. Shu boisdan ham u «Shajarayi turk» asariga yuksak baho bergan edi. «O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat» (1865) nomli kitobida Abulg‘ozining ijodi bilan 1870 yillardan boshlab qiziqib kelgan P.N.Demezov 1871-1874 yillar orasida «Shajarayi turk»ni fransuz tiliga tarjima qiladi. «Shajarayi turk» tarjimasi unga katta shuhrat keltiradi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Abulg‘ozixonning «Shajarayi turk» asari o‘tmishda Sharq tarixchilari, rus va G‘arbiy Yevropa sharqshunoslarining e’tiboriga sazovor bo‘lgan noyob asarlardan bo‘lib kelgan. U qariyb uch asrdan buyon turkiy xalqlar tarixi bo‘yicha qimmatli manba sifatida o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. «Shajarayi tarokima» va «Shajarayi turk» asarlarning tarixshunoslik fanida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida bir qator ilmiy tekshirish ishlari olib borildi. Bundan tashqari Yevropa olimlari ilmiy jamaotchilik Abulg‘ozi Bahodirxon merosiga alohida etibor beradi va yuksak baholaydi. 1938 yilda yaratilgan «XVI—XIX asrlar turkman tarixining manbalari haqida munozaralar» hamda 1958-yilda nashr etilgan «O‘rta Osiyo tarixidan ocherklar» nomli kitoblar Abulg‘ozining tanxchilik faoliyati to‘g‘risida ham bahs yuritgan asarlardandir. «Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zining muarrixligi bilan mo‘tadil, turk tarixchilari orasida shuhrat qozongan va shu bilan bir vaqtda Xiva hukmdori (1643—1663) bo‘lib, uning asarlari Rossiya va chet el tillariga ham tarjima qilingandir», — deb yozadi olim A. Semenov. XX asr davomida Abulg‘ozi Bahodirxon asarlari sovet davri tarixchilari tomonidan ham keng tadqiq qilindi. Bu davrda asarning qo‘lyozma nusxalari solishtirilib, ilmiy-tanqidiy nashrlari tayyorlandi. Natijada ushbu manbalar turkiy xalqlar tarixini o‘rganishda muhim ilmiy asoslardan biriga aylandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy tarixni qayta o‘rganish jarayonida Abulg‘ozi Bahodirxonning ilmiy merosiga yana katta e’tibor qaratildi. Mustaqillik yillarida tarixiy manbalarni milliy nuqtai nazardan tahlil qilish, ularning asl mazmunini ochib berish va ilmiy muomalaga kengroq kiritish ishlari amalga oshirildi.

O‘zbek tarixchilari tomonidan Abulg‘ozi Bahodirxon asarlarining yangi tarjimalari, ilmiy izohli nashrlari hamda tahliliy tadqiqotlari chop etildi. Ayniqsa, “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlaridagi genealogik ma’lumotlar turkiy xalqlar tarixini o‘rganishda muhim ilmiy dalil sifatida baholanmoqda. Bu asarlar orqali turkiy xalqlarning qadimgi tarixiy ildizlari, ularning o‘zaro aloqalari va siyosiy jarayonlari haqida qimmatli ma’lumotlar olish mumkin.

Hozirgi kunda ham Abulg‘ozi Bahodirxon merosi tarix, filologiya, etnografiya va manbashunoslik yo‘nalishlarida faol tadqiq etilmoqda. Uning asarlari nafaqat tarixiy manba sifatida, balki turkiy xalqlarning madaniy merosini o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Abulg‘ozi Bahodirxon ilmiy merosi milliy tarixshunoslik rivojida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalagan adabiyotlar:

1. Abulg‘ozi Bahodir “Shajarayi turk”. Toshkent. Cho‘lpon nashiryoti 1992
2. Abulg‘ozi Bahodir “Shajarayi tarokima”. 1995
3. X. Hudoynazarov “Shajarayi turk” va uning o‘rganilishi TOSHKENT “o‘qituvchi” 1993. 7-bet.
4. «Histoire genealogique des Tatars, traduite du manuscrit tartare d'Abulgasi – Bahadur – Chan, et enrichie d'un grand nombre de remarques et tres curieuses sur le veritable estat present de l'Asie septentrionale, avec cartes geographiques necessaries. Par D.»
5. Semenov A. A. Sobranie Vostochnyx rukopisey, tom 1, Toshkent, 1952, 72-bet.
6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
7. Turk sajarasi Riza Nur Turkiya Istanbul 1925.